



Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2025- yil yanvar-oktabr oylari uchun


- I. Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Toshkent viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra viloyatda 6732 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 430 tasi (*faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy soning 6,3 foizi*) Chirchiq shahriga, 191 tasi (2,8 %) Yangiyo'l shahriga, 969 tasi (14,3 %) Zangiota tumaniga, 578 tasi (8,7 %) Qibray tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni

1- noyabr holatiga ko'ra





II. Toshkent viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 132 387,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,2 % ni tashkil etdi.


	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent viloyati	132 387,3	106,2
Nurafshon sh.	3 655,5	107,4
Olmaliq sh.	42 826,2	108,1
Angren sh.	7 215,4	111,4
Bekobod sh.	6 190,5	91,1
Ohangaron sh.	5 403,9	107,9
Chirchiq sh.	13 564,4	105,6
Yangiyo'l sh.	941,0	105,2
Oqqo'rg'on	782,7	108,4
Ohangaron	8 197,6	105,3
Bekobod	449,2	106,6
Bo'stonliq	3 441,3	107,3
Bo'ka	355,1	88,7
Quyi Chirchiq	1 097,3	105,7
Zangiota	4 600,6	107,3
Yuqori Chirchiq	3 709,2	109,6
Qibray	9 784,1	103,0
Parkent	1 087,3	106,9
Pskent	958,4	108,8
O'rta Chirchiq	1 936,9	110,1
Chinoz	937,6	107,8
Yangiyo'l	2 462,2	105,3
Toshkent	3 175,2	108,1

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq shahrida (285 925,7 ming so'm), Ohangaron shahrida (127 616,9 ming so'm), Ohangaron tumanida (72 177,0 ming so'm), Qibray tumanida (54 400,2 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (42 315,9 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 104,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, Angren shahrida (109,5 %), Ohangaron shahrida (106,6 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi *yanvar-oktabr oylarida*




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush qayta ishlash sanoati hissasiga to'g'ri kelib, 114 135,7 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (86,2 %) ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 5 914,2 mlrd so'm (4,5 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 11 846,5 mlrd so'm (8,9 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 490,9 mlrd so'm (0,4 %) ni tashkil etdi.

**Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi**

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
C - Ishlab chiqarish sanoati
D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



**III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda 113 966,2 ming tonna shakar (2024- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 52,2 % ga kamaygan), 5 912,0 ming tonna ko'mir (22,2 % ga ko'paygan), 103 406,1 ming litr pivo mahsulotlari (19,5 % ga ko'paygan), 4482,1 ming tonna portlandsement (23,0 % ga ko'paygan) hamda 168 749,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (12,3 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-oktabr	2024- yil yanvar-oktabr	2025- yil yanvar-oktabr
Yumshoq bug'doy spelta uni, ming t	219,5	192,5	168,7
Shakar, ming t	328,5	238,4	113,9
Ko'mir, ming t	4154,6	4837,9	5912,0
Portlandsement, ming t	2526,9	3641,9	4482,1

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,9 % (2024- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,6 % (2024- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,7 %) ni tashkil etdi.







Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2024- yilning yanvar-oktabr oylarida 0,8



%), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,9 % (7,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 55,4 % (52,1 %), quyi texnologiyali 22,1 % (24,6 %) ni tashkil etgan.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 88,2 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 88,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-oktabr	2024- yil yanvar-oktabr	2025- yil yanvar-oktabr
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln kv.t.s	16587,7	16678,1	14784,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2427,2	2599,0	2338,3


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida 29,7 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 7,3 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 5,2 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-oktabr	2024- yil yanvar-oktabr	2025- yil yanvar-oktabr
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	46,7	73,6	79,7
Xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar- mlrd so'm	61,4	73,4	52,5

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 29 042,2 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,9 % ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida kichik biznes sub'ektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 22,4 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://Toshvil.stat.uz>



Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
S.Zoyirboyev
(4512)

Manzil: Toshkent shahar, Mirobod tumani,
Yangi Qo'yliq ko'chasi, 2-uy
